

**RESPUBLIKA O'RMON XO'JALIGI BO'LIMLARIDA
YETISHTIRILAYOTGAN DORIVOR NAMATAK O'SIMLIGINING
DORIVORLIK XUXUSIYATLARI TO'G'ISIDA**

Abdurahmonov Muhammadmo'ydin Bohodirjon o'g'li¹

Yulbasov Avazbek Muhtarovich²

Nazirjonov Ibrohimjon Anvarjon o'g'li³

Sultonov Xumoyun Mahmudjon o'g'li⁴

muhhammadmoydinabdurahmonmov@gmail.com¹

avazbekakayulbarsov@gmail.com²

nazirjonovi@mail.ru³

xumoyunsu@gmail.com⁴

O'rmon xo'jaligi ilmiy-tadqiqot instituti

Andijon filiali ilmiy xodimlari

Annotatsiya: Maqlada namatak o'simligining dorivorlik xususiyatlari kelib chiqish tarixi haqida ma'lumotlar berilgan va respublikamiz sharoitlarda urug'larilaridan va ko'paytirish va rivojlanishi to'g'risida so'zlangan.

Kalit so'zlar: O'rmon, namatak, dorivor, nihol, agrotexnik talablar, rivojlanish, urug'

Annotation: The article provides information about the history of the origin of the medicinal properties of the namatak plant, and examines its cultivation and development from seeds in the conditions of our country.

Keywords: Forest, felt, medical, seedling, agricultural technical requirements, development, seeds

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 26 noyabrdagi PQ-4901-son "Dorivor o'simliklarni yetishtirish va qayta ishlash, ularning urug'chiliginini yo'lga qo'yishni rivojlantirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar ko'lамини

kengaytirishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorida dorivor o‘simpliklarni yetishtirish va ulardan dori vositalarini ishlab chiqarishni tashkil etishga oid ilmiy tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish uchun xalqaro moliya institutlarining grantlarini jalb etish jumladan o‘rmon xo‘jaligi bo‘limlarida dorivor o‘simpliklarni ko‘paytirish va uning xom-ashyosini tayyorlash sohasini rivojlantirish bo‘yicha alohida chora tadbirlar amalga oshirilmoqda. barcha tarmoqlarda olib borilayotgan islohotlar qatorida o‘rmon xo‘jaligida ham bir qancha islohotlar amalga oshirilmoqda. Jahon miqyosida dorivor o‘simpliklar o‘sadigan hududlarni muhofaza qilishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Dunyoda 10-12 ming turdag'i dorivor o‘simpliklar mavjud bo‘lib, O‘zbekistonda esa bu ko‘rsatkich 577 turni tashkil etadi. Rasmiy Tibbiyotda 112 ta turdan foydalanish tavsiya etilgan. Ayni paytda dunyoda Namatak plantatsiyalari maydoni va undan olinadigan xomashyo miqdori ortib bormoqda. Na’matak (Rosa) – ra’nodoshlar oilasiga mansub butalar turkumi. Bo‘yi 3 m cha. Bargi tok, patsimon murakkab, poyada ketma-ket joylashadi. Guli xushbo‘y, rangi har xil, yakka yoki 2-3 tadan o‘rnashgan. Mevasi shirali, shakli va rangi har xil, gul o‘rnidagi soxta meva ichida tukli, bir urug‘li yong‘oqchalar joylashgan. Na’matak turlari bir-biridan mevasining shakli, katta-kichikligi, rangi, novda po‘stlog‘ining rangi hamda novdadagi tikanlarning oz-ko‘pligi va joylanishiga qarab farqlanadi. Na’matak o‘rmonlarda ariq yoqalarida, butalar orasida, tog‘ yon bag‘irlarida o‘sadi. Guli chiroyli turlari bog‘larda, xiyobonlarda va ko‘chalarda o‘stiriladi. Itburun na’matak (Rosa canina) mevasida 4–6%, ba’zan 18% cha S, R2, K, R vitaminlari, 18 mg% cha karotin, 18% cha qand, 2% cha limon kislota, oshlovchi va moddalar bo‘lib, tibbiyotda avitaminozning oldini olish va davolashda qo‘llanadi. Na’matakning manzarali turlari – atirgullardan olinadigan xushbo‘y efir moyi (atirgul moyi), asosan, parfyumeriyada, undan tayyorlanadigan atirgul suvi (Aqua Rosae) farmatsevtikada dorilarning hidi va mazasini yaxshilash uchun ishlataladi. Namatak o‘rmonlarda ariq yoqalarida, butalar orasida, tog‘ yon bag‘irlarida o‘sadi. Tog‘ning o‘rta qismidan cho‘l hududigacha bo‘lgan

mintaqalarda uchraydi o'simlik turkumiga 268 ta tur ro'yxatga olingan hashoratlar yordamida changlanadi O'rta Osiyoda 39 turi ma'lum asosan tog' va to'qaylarda tabiiy holda o'sadi, hozirgi kunda madaniylashtirilgan mahalliy xalq orasida itburun deb ataladi. ko'paytirilishi mazkur o'simlik urug'idan, qalamchasidan, ildiz bachkisidan, parxesh usullari bilan ko'paytiriladi. Urig'idan ko'paytirilgan o'simlik 3-4 yilda hosilga kiradi, qalamchalaridan ko'paytirilganda esa 2-3 yil vaqt kerak bo'ladi. Namatakdan tez yuqori hosil olishda parxesh, ildiz bachkisidan hamda qalamchalarini kartoshka tuginagi ichiga suqish orqali amalga oshiriladi. Parxesh yo'li bilan ko'paytirishda na'mataknning yosh novdasi asosiy poyadan ajralmagan holda kamon yoyi singari kuz faslida tuproqqa ko'miladi. Ko'milgan novda ildiz hosil bo'lgandan so'ng asosiy poyadan ajratiladi. Bu usulning samarali tomoni tez hosilga kirishi, kam vaqt talab qilishidadir, lekin uning kamchiligi kasallanish, qarish jarayoni boshqa usullarga qaraganda jadalroq kechadi. Qalamchalaridan ko'paytirishning kamchiligi o'simlik novdasining tutib ketishi qiyinligi, kech hosilga kirishidir. Bundan tashqari keyingi yillarda kartoshka tunganiga ekish usuli ham takomillashdi. Bunda kurtaklangan tuginak ichiga mazkur o'simlik novdasi suqlidi, tagi teshik idishga solib usti qum bilan to'ldiriladi. Usti bir martalik plastik idish bilan berkitiladi, suv quyib turiladi. 15-20 kundan keyin o'simlik tutganini ko'rish mumkin. Bunda kartoshka tuginagi tarkibidagi kraxmal shakarga aylanadi, o'simlik novdasi ana shu shakar yani uglevod bilan oziqlanadi. O'simlik mevasini yig'ishtirib olish; Ma'lumki tabobatda asosan mazkur o'simlikning mevasidan foydalilanadi. Shuning uchun yig'ishtirib olishga alohida etibor berish kerak. Bu o'simlik mevalarini yig'ishtirishning asosiy texnologik talabi o'z vaqtida yig'ishtirishdir. Avgust oxiri sentabr oyi boshlarida o'rta mintaqalarda pishishni boshlaydi. Bu mevalarni yig'ishning eng qulay vaqt hisoblanadi. Mevalar ho'llligida lekin o'ta pishib ketmagan holda bo'lishi kerak. Chunki mazkur o'simlik tikanli bo'lganligi uchun yig'ish vaqtida tashqi qobig'i shikastlanishi, natijada o'simlik mog'orlab sifati buzilishi mumkin.

O'simlik yig'ib olingandan so'ng tozalanadi, havo aylanadigan, salqin quruq joyda quritiladi. Quritish mevalar terib olingandan so'ng 12-15 soat ichida qilish tavsiya etiladi. Undan kechiksa foydali darmon-dorilari kamayishi, sifati buzilishi turli xil zararli mikroorganizmlar va zamburug'larning ko'payishiga olib kelishi mumkin. Ob-havo sharoitidan kelib chiqib mevalar tabiiy yoki suniy sharoitda quritiladi. Agar quyosh nurida quritsa foydalilik xususiyatlari kamayishi mumkin, quritish pechlarida quritilganda esa darmondorilik xususiyatlarini 80% ni saqlab qoladi. Iloji boricha mevalar tabiiy sharoitda quritilishi kerak. Quritish davomida bir kunda bir necha marta ag'dariladi, mog'orlamasligi uchun. Qurigan mevalar qog'oz qoplarda yoki matodan tikilgan qoplarda saqlanadi, yelim xaltalarda saqlash yaxshi qurimagan o'simlikni mog'orlashiga sabab bo'ladi. Mevasida A,B,C,D vitaminlari va ko'plab darmon-dorilar borligi uchun tibbiyotda juda keng miqyosda foydalilaniladi. Bundan tashqari guli va mevasidan parfumeriyada turli pardoz buyumlari tayyorlashda hamda pazandachilikda ishlataladi. Na'matak tarkibida S vitaminini ko'p. U limon tarkibidagi vitamin miqdoriga qaraganda o'nlab marta ko'proq. Mahsulotning quvvatliligi ancha kam – 100 gr mahsulotga 50 kkal (sof holatida). Qaynatmaning quvvati esa 13 kkal ga teng. Bu esa qaynatmani parhez vaqtida ham iste'mol qilish imkonini beradi. Biroq faqat kaloriyalarni olmaslik uchun shakar qo'shmaslik kerak.

Foydasi: 1.Na'matak qaynatmasini qo'rmasdan fitovosita deb atash mumkin. To'g'ri tayyorlangan ichimlikni ichish vitaminlar manbaiga aylanib, organizm immun tizimini mustahkamlaydi. Quvvat kamayganida va avitaminoz vaqtida yordam beradi. 2. Qaynatma qon-tomir tizimiga to'g'ri ishlashda qo'il keladi. Temir qon hosil qilish jarayonlarida faol ishtirok etadi. 3. Arterial bosimni tushiradi. 4. Na'matakni istemol qilish tanosil kasalliklari uchun foydali. Qaynatma mikroblarga qarshi ta'siriga ega. Qovuq yallig'lanishining oldini oladi. 5. Yallig'lanish ta'siriga ega bo'lgani uchun og'izni chayqash uchun ham foydali. U og'izdagi mayda yaralarni davolab, milklardagi yallig'lanishni oladi. 6.

Shishishni bartaraf etishda yordam beradi. 7. Homiladorlik davrida va ko‘krak bilan boqish vaqtida foydali. Laktatsiyani yaxshilash uchun ichimlikni qaynoq holida ichgan ma‘qul.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Na’matak o’simligining dorivorlik xuxusiyatlari “Innavaive achievements in science 2024” NamMTI PhD N.Sayfullayeva Talaba Jamoliddinova G Nam.DU «Dorivor o’simliklarni yetishtirish va qayta ishlash texnologiyasi» talaba S.Abduqaxarova
2. S.M.Mustafayev, Botanika darslik Toshkent O‘zbekiston 2002 y.
3. D. Zunnunova - Na’matak 100dardga davo salomatlik sirlari Toshkent. Davr press 2010 y.
4. O‘Axmedov, A.Ergashev, A.Abzalov, M.Yulchiyeva D.Mustafaqulov -Dorivor O’simliklarni Yetishtirish Texnologiyasi|| 2020 y.